

Borliqni qush uyqu elitgan palla,
Ko'ngil tuyg'ularga behad ko'milar. (E.Shukur)

Mazkur misolda lokativ subyekt sifatida dala, to'g'rirog'i, egasiz hovliday to'zigan dala kelgan va poetik nutq kompozitsion-sintaktik qurilishida muhim rol o'ynovchi tema vazifasini bajargan. Remada esa dala tasviri va muallifning dala bilan bog'liq tuyg'ulari, kechinmalari yoritilgan.

Demak, poetik nutq temasida subyektning yuqoridagi ma'nolar sistemasi kuzatiladi. Rema esa, asosan, temadagi subyekt ma'nolarini izohlash bilan reallashadi.

Xulosa.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, poetik nutqda ham xuddi gap ko'rinishlaridagi kabi tema-rema munosabati – aktual bo'linish kuzatiladi. Tema – mavzuning nimadan iborat ekanligi nutqning birinchi gapi yoki shu gapning biror bo'lagi orqali e'lon qilinadi. Rema esa poetik nutqning keyingi qismlarini tashkil etuvchi gaplar (satrlar)dan iborat bo'ladi. Ular o'rtasidagi munosabat poetik nutq kompozitsion-sintaktik strukturasi shakllanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, poetik nutqda mantiqiy izchillikni va poetik nutqning sintaktik hamda semantik jihatdan yaxlit qurilma sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения. “Пражский лингвистический кружок” М., 1967.
2. Распов И.П. Актуальные членения и коммуникативно синтаксические типы повествовательных предложений в русском языке. АДД. М., 1964.
3. Амиров Р.С. Способ актуального членения в казахском языке. «Советская тюркология». 1970. № 6, Агаева Ф.М. Синтаксис азербайджанской разговорной речи. АДД. М., 1979. Валиев К.Н. Семантическое (актуальное) членение предложения в тюркских языках. III. Всесоюз тюрк. Конф (тезисы докладов и сообщений) «Языкознание», Ташкент, 1980.
4. Хайитметов А. Ўзбек тилида гапнинг актуал бўлиниши ва позиция масалалари. Тошкент. “Фан”, 1984.
5. Нурмонов А. Н. Гап ҳақидаги синтактик назариялар (студентлар учун махсус курс). Тошкент. 1988 й. 72-бет.

Dusmatov Xikmatullo Xaitboyevich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Farg'ona davlat universiteti. ORCID: 0009-0005-4299-6170 x.dusmatov@pf.fdu.uz
Komilova Shaxrizoda – Farg'ona davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi shahrizodaqahramonova19.09@gmail.com +998999198980
<https://orcid.org/0009-0006-3650-2290>



**O'ZBEK QIZIQCHILARI NUTQIDA HAJVIYLIKNI YUZAGA
KELTIRUVCHI FONOSTILISTIK USUL VA VOSITALAR**

<https://zenodo.org/records/18724367>

Annotatsiya: Maqolada qiziqchilar nutqida hajviylikni yuzaga keltirishda muhim o'rin tutuvchi fonostilistik vositalar – intonatsiya, urg'u, pauza, tovush cho'zish, fonetik takror, alliteratsiya, assonans kabi birliklarning funksional xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ushbu vositalarning komik effekt hosil qilishdagi o'rni, tinglovchiga emotsional-ta'sirchan ta'sir ko'rsatish mexanizmlari hamda nutq jarayonidagi pragmatik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida fonostilistik unsurlarning qiziqchi nutqida obrazlilikni kuchaytirish, vaziyatli kulgi yaratish va auditoriya bilan interaktiv aloqa o'rnatishdagi roli misollar asosida ochib beriladi. Natijada qiziqchi nutqining fonostilistik xususiyatlari uning hajviy-estetik tabiati bilan chambarchas bog'liq ekani ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: fonostilistika, xalq og'zaki ijodi, omonim, frazeologizm, ko'p ma'nolilik.

ФОНОСТИЛИСТИЧЕСКИЕ ПРИЁМЫ И СРЕДСТВА СОЗДАНИЯ КОМИЧЕСКОГО ЭФФЕКТА В РЕЧИ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ КОМИКОВ

Аннотация: В статье рассматриваются функциональные особенности фоностилистических средств, занимающих важное место в создании комического эффекта в речи узбекских народных комиков, — интонации, ударения, паузы, протяжённости звука, фонетического повтора, аллитерации, ассонанса и других единиц. Анализируется роль данных средств в формировании комического эффекта, механизмы их эмоционально-экспрессивного воздействия на слушателя, а также их прагматическая значимость в процессе речевой коммуникации. В ходе исследования на основе примеров раскрывается роль фоностилистических элементов в усилении образности речи комика, создании ситуативного юмора и установлении интерактивного контакта с аудиторией. В результате научно обосновывается, что фоностилистические особенности речи комика находятся в тесной связи с её комико-эстетической природой.

Ключевые слова: фоностилистика, фольклор, омоним, фразеологизм, полисемия.

PHONOSTYLISTIC DEVICES AND MEANS OF CREATING COMIC EFFECT IN THE SPEECH OF UZBEK FOLK COMEDIANS

Abstract: The article examines the functional characteristics of phonostylistic devices that play a significant role in creating comic effect in the speech of Uzbek folk comedians, including intonation, stress, pause, sound prolongation, phonetic repetition, alliteration, and assonance. It analyzes the role of these devices in generating comic effect, the mechanisms of their emotional and expressive impact on the audience, as well as their pragmatic significance in the process of speech communication. The study further reveals, through illustrative examples, the role of phonostylistic elements in enhancing imagery in the comedian's speech, producing situational humor, and establishing interactive contact with the audience. As a result, it is scientifically substantiated that the phonostylistic features of comic speech are closely connected with its humorous and aesthetic nature.

Key words: phonostylistics, folklore, homonym, phraseologism, polysemy.

Kirish.

O'zbek tilshunosligida fonetik vositalarning uslubiy [1,2] va pragmatik xususiyatlarini [3] o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shunga qaramay, hozirgi kunda fonostilistikaning tadqiqot doirasi nihoyatda kengaygani bois, bu sohada jiddiy va chuqur kuzatishlar olib borish lozim, deb o'ylaymiz. Bu fikrni bir qator olimlar tasdiqlaydilar [4; 45-48, 2; 22]. Ayniqsa, qiziqchilar nutqida tovush o'zgartirishlarning lingvostilistik xususiyatlari, uning fonopragmatik talqini, nutqiy birliklarning tovushlar talaffuzi bilan aloqador konnotativ ma'nolari, nutq tovushlari o'zgarishi bilan aloqador so'z o'yinlari, intonatsiya, pauza, urg'u kabi ustsegment elementlarning askiyachi va qiziqchilar nutqida uslubiy ma'noda qodlanishi imkoniyatlarini kengroq o'rganish o'zbek tili fonostilistikasi yuzasidan muhim nazariy xulosalar qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tilimizdagi fonetik hodisalarning sodir bodishiga nutqda ixchamlikka intilish, bo'g'inga urg'uning tushishi yoki tushmay qolishi, shoshilib talaffuz qilish, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar kabi tabiiy omillar sabab bo'lsa, qiziqchilar nutqida uchraydigan tovush o'zgarishlariga maxsus poetik figura sifatida yondashish lozim. Nutqda qodlanadigan fonostilistik vositalar bilan aloqador so'z o'yinlariga tabiiy nutqiy jarayon sifatida emas, balki maqsadli nutqiy jarayon sifatida qarash maqsadga muvofiq. Chunki turli stilistik ifoda uchun til birliklarining fonetik strukturasi ataylab o'zgartiriladi. Bu esa askiya matnini, qiziqchilar nutqini inson omili asosida, antropotsentrik jihatdan tahlil etish, nutq (matn)dagi tovush o'zgarishlarini: tovush almashishi, tovush tushishi, tovush ortishi hodisalarini "tovush almashtirish", "tovush tushirish", "tovush orttirish" atamaları bilan nomlash to'g'ri bo'ladi [5; 87].

Qiziqchilar o'z nutqida fonostilistik vositalar yordamida bir paytning o'zida birdan ortiq axborot ifodalash zarurati tufayli fonetik birliklarning kontekstdagi axborot tashish vazifasini orttiradilar. Bunday uslubiy talab bilan nutqning kommunikativ vazifa ko'lami murakkablashtiriladi, nutqiy birliklar polisemiylashtirilib, ifodaning serqirraligi hamda polifunksionallik ta'minlanadi. Tovushlarni o'zgartirish nutqning ekspressiv jihatini kuchaytiradi, nutqning o'ziga jalb qilish, mulohazaga chorlash funksiyasini oshiradi.

Natija va muhokama.

Fonostilistik o'yin "fonopragmatik ta'sir" va "fonopragmatik hujum" strategiyasidan iborat bo'ladi. Tinglovchi nutq tovushlarining kontekstdagi ekspressiv imkoniyatlarini tez, To'g'ri va turlicha idrok etishi lozim bo'ladi. Tovush o'zgartirishlari leksema, morfema hamda sintaktik aloqa hosilasi natijasida (leksema+morfema, leksema+leksema) ham yuzaga chiqariladi.

Qiziqchilar nutqida so'z o'yinlari hazil-mutoyiba, qochiriq, kulgi qo'zg'atuvchi xarakterda bo'ladi. "Kulgi qo'zg'atuvchi vositalar xilma - xil bo'lib, ularni barcha sathlarda, jumladan, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarda uchratish mumkin". Qiziqchilar nutqida milliy mentalitet assonans (unlilarni cho'zish), alliteratsiya (undoshlarni takrorlarsh), geminatsiya (undoshlarni qavatlantirish) kabi fonostilistik hodisalar orqali ifodalanishi mumkin [6; 4]. Ma'lumki, qiziqchilar nutqining shakllanishida barcha til birliklariga xos fonetik, leksik, grammatik vositalar ham muayyan vazifani bajaradi. Bu o'rinda shuni unutmaslik kerakki, har qanday til birligining uslubiy imkoniyatlari kabi fonetik vositalarning semantik-stilistik imkoniyatlari ham matn doirasida oydinlashadi.

Biz quyida keltiriladigan misollarda qiziqchilar nutqida unli tovushlarni cho'zish orqali shakllangan hajviy vaziyatlarni tahlil qilishga harakat qildik. Assonans – aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik [7; 6]. Qiziqchilar nutqida unlilarni cho'zib talaffuz qilish orqali turli ma'nolar ifodalanadi:

a) kinoya, piching: San'atkor san'atkorga do'-o'st bo'ladi-da. (M.Sherboyeva)

- Kimga yozu-uvding, o'zi.
- Onamlarga yozu-uvdim.
- Ha-a, qaynonamgami-i, nima deb yozuvdi-ing?
- Ha, biznikiga kelib, 5-6 kun turib keting, mehmon bo'lib dam olib keting, deb yozuvdim, desa:

- Yo'o'e-e, qaynonamga-ya, 5-6 kun-a? Hmm...(A. Oxun) Mazkur misolda qaynonamgami-i, qaynonamga-ya-a, kun-a so'zlari tarkibida -mi, -ya, -a so'roq yuklamalaridagi unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish orqali so'rash ma'nosini emas, balki kinoya, piching ma'nolarini anglashimiz mumkin.

b) tasviriylilik: Agar shu sahnaga Ozodbek Nazarbekov chiqib kelganda bo -ormi, ayollar qi-iyqirib yig'lab yuborardi. (M.Sherboyeva)

Choyda ko'pik ko'rsa, sochiga surtadiganlar bor. Boylik ekan. – Boylik, bo-oylik, bo-o-oylik, – deb surtadiganlar bor.

Peshonasi keng odam uzo-o-oq yasharmish. Peshona keng bo'ladimi, tor bo'ladimi, sho'r bo'lmasa bo'ldi.

Qiziqchi Avaz Oxun nutqidan olingan yuqorida keltirilgan misollarda so'z ustasi unli tovushlarni cho'zish orqali o'zbeklarga xos turli irim-sirimlarga ishonish, ularning ortidan quvishni hajvga oladi.

d) ma'no kuchaytirish: Tog'ning o'-o'rtasidan chiqayotgan mu-uzdek suvni to'ldirib, shunga tushasan dermish.(H.Tojiboyev)

Tor kiyim kiyish modami-ish, hozir. Modani kim chiqaradi, mana shu san'atkorlar chiqaradi. O'zi achchiq uchaka o'xshab uzu-un yana to-or-r kiyim kiyib oladi. To-or-r. Qorinlariniyam qi-is-s-i-ib. (A.Oxun)

Omonxona suviniyam ichgansizlar, aptekadayam sotadi, lekin joyiga borib ichish kerak ekan. M-uzda-ay joyidan ichsangiz, ana shu foyda ekan. Men shu foydasini sezdim. (A.Oxun) Mazkur misoldagi uzu-un so'ziga e'tibor bersak, u unlisini cho'zish bilan ma'no kuchaytirilganini ko'rishimiz mumkin. To-or-r, qi-is-s-i-ib, mu-uzda-ay, uzu-un so'zlarida ham ma'no kuchaytirilgan, lekin bu so'zlarda unli tovushni cho'zib talaffuz qilish bilan birga, undosh tovushlarning qavatlanishini ham guvohi bo'lamiz. Undosh tovushlar qavatlanishi hamda unli tovushlarning cho'zib talaffuz qilinishi ma'noning kuchayishiga, tinglovchilarda tasvirning jonli chiqishiga hamda ularda kulgi uyg'otishga xizmat qiladi.

Ma'noni kuchaytirish deganda, predmet va harakat belgilarining odatdagi potensial chegarasidan ortiqligi, davomlilik, odatdagidan tezligi kabi ma'nolar, so'zlovchining ta'sirchanlik bilan ifodalagan fikrlari nazarda tutiladi [8; 43].

e) belgining ortiqqligi: –E-e-e, bu bilasilami qanaqa mashina? E-eng a-arzon, dunyo bozoridagi e-eng a-arzon juda ka-a-a-m o'tadigan mashina. (H.Tojiboyev) Ushbu misolda a unlisini cho'zib talaffuz qilish natijasida belgining me'yordan ortiqqligi ma'nosi anglashiladi. Shuni aytishimiz mumkinki, belgining me'yordan ortiqqligini bildirish ma'nosidan ko'ra, ozaytirma daraja, ya'ni belgining me'yordan ozligi ma'nosi

ifodalanmoqda. Soʻz ustasi mazkur soʻzlardagi unlilarni choʻzish orqali tinglovchida oʻziga xos kulgi uygʻotadi.

Bir odamni qarasam, gʻamgi-in oʻtiribdi. (A.Oxun) Ushbu misoldagi gʻamgin soʻzida i unlisi choʻzib talaffuz qilinadi. Soʻz ustasi ushbu i tovushini choʻzish bilan tasvirlanayotgan obyektning juda ham xafa, oʻta darajada gʻamgin ekanligini boʻrttirib ifodalaydi. Bu esa tinglovchilarda oʻziga xos kulgi uygʻotadi.

Yana bir sanatoriyaga bordim. Bir payt shunday sanatoriyaga kirib, sanatoriyaning hovlisiga qarasam, bir akamiz oʻtiribdi daraxtning tagida. Betlari kirib ketgan ichiga, koʻzlari **ka-atta – ka-atta** boʻlib ketgan bechora-a, **oozgʻi-in**. (A.Oxun) Ushbu misolda ka-atta - ka-atta, bechora-a, o-ozgʻi-in soʻzlari tarkibidagi unlilarni choʻzib talaffuz qilish orqali tasvir yana-da kuchaytirilib, boʻrttirib ifodalanmoqda. Bu bilan soʻz ustasi bergan axborot yana-da taʼsirliroq chiqmoqda.

f) davomiylilik, yaqinlik: Qaleysi-iz-z, kechayam keldim chiqmadizu-u, oʻrnizga otangiz chiqdi-i, itingizni qoʻyvordi-i, mani quvi-ib ke-etdi, sal qoldi yetvolishiga-a, unaqamasda-a, aytib qoʻysangiz boʻlmaydimi-i...? (H. Tojiboyev)

g) iztirob, oʻkinish kabi maʼnolarni bildiradi: Bunday orasidan qarab turib, bu basharani qara-a-a, bunaqa xunuk bashara boʻlmasa kerak jahonda. Bu bashara bilan dunyodan to-oq oʻtib ketsam kerago-ov.(H. Tojiboyev)

h) xarakterni ochib berishga xizmat qiladi: Oʻzbekning bolasi tugʻilganda mehnatning oʻ-oʻ-oʻrtasida tugʻiladi. (H.Tojiboyev)

Qiziqchi ushbu misolda oʻ tovushini choʻzib talaffuz qilish orqali oʻzbek millatiga xos mehnatsevarlikni koʻrsatish bilan birga har qanday holatda ham odamlar uchun mehnat qilish har qanday boshqa ishlardan muhim ekanligini ochib beradi.

Qiziqchi Avaz Oxun nutqida oʻzbek milliy latifalari ham koʻzga tashlanadi. Quyida Avaz Oxun nutqidan keltiriladigan latifada tovushlarni choʻzish orqali oʻzbek millatiga xos hozirjavoblikni koʻrsatib beradi:

Bir talaba yigit qassobning oldiga kelib:

- Aka, 500 soʻmlik goʻsht bering, debdi.

Qassob hayro-o-on boʻlib, bir talabaga, bir goʻshtga qarab:

- Uka, men bir narsa deyishga hayronman, shu-u-u oʻzingga yoqqan joyidan bitta tishlab ketaver, – degan ekan.

Taniqli soʻz ustasi Hojiboy Tojiboyev nutqini tahlil qilar ekanmiz, uning ijodida soʻz qoʻllash bilan bogʻliq uslubiy oʻziga xoslikni koʻramiz. Jumladan, soʻzlarni turli maʼno nozikliklari bilan qoʻllash, izohlash, tavsiflash, qiyoslash mazmunidagi matnlardan salmoqli foydalanish, lisoniy birliklarga nozik maʼno ottenkalarini mahorat bilan yuklay olish H.Tojiboyevga xos lingvistik mahoratdan dalolat beradi. Bu holni birgina nutq tovushini choʻzish bilan bogʻliq quyidagi lingvokulturologik holatlar ifodalanayotganligida ham koʻrishimiz mumkin:

Onaning vaqti yoʻq. Umuman mehri qolmagan. Koʻp bolali boʻlgandan keyin mehr ham bolalarga boʻlinib-boʻlinib ketarkan-da. ...Bittasi u tizzasida, bittasi bu tizzada uxlab qolgan; bittasi orqasiga opichib uxlab qolgan. Oʻzi be-e-e-malol, yurakni ke-eng qilib, sovuqqonlik bilan ip yigirib oʻtiribdi. Haligi zoʻrgʻa yuradigan bolacha qizib turgan pechkaga qarab boryapti pechkani ushlayman deb. Bu koʻrib turibdi, jon achishmaydi-da:

- Borma-a-a, kuyasan!

Ho-oy, kuyasa-a-n!

Ana-a-a, kuydi-i-i-i-ng!

Soʻz ustasi nutqida a tovushi va i tovushini choʻzib talaffuz qilish bilan: bola tarbiyasiga sovuqqonlik; beparvolik; oilaviy muhit; ishning bola taqdiridan koʻra muhimligi kabi milliy mental xususiyatlarni mohirona ochib berishga erishgan.

Lisoniy oʻyinining eng yorqin, yaqqol namoyon boʻladigan jihatlaridan biri fonetik sathdir. Har bir lisoniy jamoa amaliyotida baholovchi komik ahamiyat kasb etgan fonetik nomeʼyoriylik (gʻayriodatiylik)lar majmuasi shakllangan. Insonlar nutqiy faoliyatida dimogʻda gapirish, duduqlanish, “kavkazcha, yahudiycha” va shu kabi aksentlar, fonetik oʻziga xosliklarning stereotipli majmualari mavjud [9; 11].

– Zamonam qiziqda! Oddiy makkajoʻxorini shunday-shunday chopib qoʻylarimga bersam: “rahmaat”-deydi, oʻshani qaynatib artistlarga bersam “vak-mak”-deydi.

Qiziqchilik sanʼatining askiya sanʼatiga yaqin turuvchi jihatlar mavjud. Yuqoridagi hajviy matnda leksik birliklar tarkibidagi fonetik strukturaning atayin oʻzgartirilishi natijasida mazkur birliklarning ifoda va mazmun jihatida oʻziga xos oʻzgarish roʻy bergan. Yaʼni “rahmaat” soʻzining choʻzib talaffuz qilinishidan asosiy koʻzlangan maqsad uni keyingi “vak-mak” soʻziga moslashtirishdir. Ushbu birliklarning anglatgan maʼnosi makka navlariga borib taqaladi. Qoʻy uchun ozuqa sifatida yetishtiriladigan oddiy (xalq tilida jaydari makka) va uning odamlar uchun ozuqa sifatida yetishtiriluvchi vak-mak turi. Bundan tashqari fonetik hodisalar ham qiziqchilar nutqida oʻziga xos ahamiyatga ega hisoblanib, ulardan foydalanish orqali tomoshabinlarda kuchli emotsional holatlarni yuzaga chiqarish mumkin. Qiziqchilar nutqida esa bunday birliklardan vaziyatga moslangan birliklar tayyorlanib ularni ommaga havola etishda bugungi kundagi vaziyatlarga, shuningdek tomoshabinlarga maʼlum boʻlgan vaziyatlarni yoritishda tayaniladi:

– Xalqimizda bir naql bor “erkaklar yaxshilikka yetaklar”. Shunda ayollar qayerga yetaklaydi?

Maqol va hikmatli soʻzlar, turli xalq iboralarida keng qoʻllanilib, ular bir tomondan ifodaning taʼsirchanligini oshirish, ikkinchi tomondan esa ifodaning hayotiy tajribaga asoslanganligini bildirib, uzatilayotgan axborotning xalqchilligi taʼminlash uchun xizmat qiladi. Nutqiy muloqot jarayonida bunday vositalarni qoʻllash kommunikativ maqsadni yuzaga chiqishida alohida ahamiyatga ega. Ammo qiziqchilar nutqida bunda birliklarning qoʻllanilishi tinglovchilarda kulgi qoʻzgʻash, kayfiyatga taʼsir etish uchun xizmat qiladi. Nutqda tayyor holda qoʻllaniluvchi birliklar tarkibidagi leksemalarni qiziqchilar mavzuga mos tarzda oʻzgartirib borishadi. Bundan koʻzlangan maqsad kulgi qoʻzgʻashdir. Ushbu misol oddiy savol tariqasida tuzilgan boʻlishiga qaramay, undagi ifodalangan mazmunni boʻrttirish hamda oʻz ichki maqsadini ifodalash, shuningdek kulgʻu qoʻzgʻash maqsadida soʻzlovchi “ertaklar” leksemasini “erkaklar” tarzida talaffuz etadi. Tovush almashtirish hodisasi esa maqolning asl mazmunidan uzoqlashib soʻzlovchi maqsadini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Aynan shu jarayonda fonostilistik hodisalarni nutqiy jarayonda maqsadli oʻzgartirish samarali xizmat qilganligiga guvoh boʻlamiz.

Fonetik strukturani oʻzgartirish nutqning ekspressivlik darajasini oshirib, mulohazaga chorlash funksiyasini ham bajaradi. Bunday hodisalar natijasida xalq ogʻzaki ijodining mahsuli hisoblangan maqollarning asl mazmuni ikkinchi darajali ahamiyat kasb etib, maqsadli tarzda oʻzgartirilgan leksemalarning ahamiyati birinchi oʻringa chiqadi:

– Xalqimizda bir maqol borku “Birni ko‘rib shukr qil, mingni ko‘rib qanchasi rozi bo‘lib ketyapti” degan.

Keltirilgan misolda maqolning ikkinchi qismi maqsadli tarzda ikkinchi qism uchun to‘liq moslashtirilgan, bundan asosiy maqsad esa kulgi qo‘zg‘ash. Hajviy matndagi “ming” leksemasi xalq og‘zaki ijodi na‘munasi hisoblangan maqolda “shaxs” ma‘nosini yuzaga chiqargan bo‘lsa, hajviy matn tarkibida uning ma‘nosi “ming” ya‘ni pul miqdorini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Aynan ma‘na shu so‘zning mazmunini oydinlashtirish, yoritish, asosiysi kulgi qo‘zg‘ash uchun ham maqolning ikkinchi qismi unga mos tarzda tuzilgan. Tilshunoslikda bunday birliklarni omonim atamasi ostida izohlanadi. Omonimlar bir xil shaklga ega bo‘lgan til birliklarning turlicha mazmunga ega bo‘lishi hisoblanadi. Omonimlar o‘z ichida leksik, frazeologik, grammatik omonimlarga bo‘linadi. Ba‘zi til birliklari ma‘lum bir matn doirsidagina omonim hisoblanib nutqdan tashqarida esa bunday xususiyatlarni o‘zida saqlamasligi ham mumkin. Keltirilgan misoldagi “ming” leksemasi ham huddi shunday omonimlarga misol bo‘la oladi. Tilshunoslikda urg‘uga bo‘g‘in yoki so‘zning biror fonetik vosita orqali ajratilib, zarb bilan aytilishi hodisasi sifatida qaraladi [10; 138]. Bu hol, odatda, ovozning ko‘tarilishi, cho‘ziqlikning ortishi va intonatsion taktning kuchayishi kabi fonetik vositalar bilan ifodalanadi. Qiziqchilar nutqida urg‘u oluvchi bo‘lak birdan ortiq axborotga ega bo‘ladi hamda nutqning ta’sirchanligini oshirishda uslubiy vazifa bajaradi. Qiziqchi H.Tojiboyev rus tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘zlardagi urg‘uning o‘rnini almashtirib, o‘zbek xalqiga xos talaffuz qilish orqali o‘z nutqida milliy koloritni aks ettiradi.

- Plakat so‘zi ruscha so‘z bo‘lib, o‘zbekchasiga nima bo‘ladi?
- Palakat.
- O‘zing palakat. Palakat bu boshqa narsa. Plakat! Ruscha so‘z, o‘zbekchasiga nima bo‘ladi?
- Afisha.
- Afisha – bu afisha bo‘ladi. Devoriy gazeta stend bo‘ladi. Ko‘rgazma выставка bo‘ladi. Bilmasanglar, bilib olinglar: plakat so‘zi ruscha so‘z bo‘lib, o‘zbekchasi plakat bo‘ladi. Oson-ku, lyubboy ruscha so‘zni sa-al yumshoqroq qilib gapiring, o‘zbekcha bo‘ladi-qoladi. Masalan-da, ruslar shofyor deydi, bizni o‘zbeklar shopir. Direktor demaydi-da, diriktr, elektr demaydi-da, iliktr deydi.

Xulosa.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, qiziqchilar nutqida milliylikning ifodalanishida, hajviy vaziyatlarning yuzaga kelishida, qiziqchining nutqi tinglovchida kulgi uyg‘otishida fonostlistik usullar ham asosiy o‘rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996.
2. Гайдаров А. Бадий тасвирнинг фоностилистик воситалари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008.
3. Хакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2014.
4. Йулдошев Б. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. Туркий тилларнинг фонологияси ва морфонологиясининг долзарб масалалари. – Нукус, 2005.

5. Дусматов Х. Аския матнининг лингвостилистикаси. Филол. фан. фал. док. (PhD) дисс. – Фаргона, 2018.
6. Абдурахманов Ш. Ўзбек адабий нутқида кулги кўзгатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997.
7. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
8. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Т.: 1987.
9. Рустамов И. Кичик жанр матнларнинг прагматик когнитив ва миллий маданий моҳияти (ўзбек ва инглиз латифалари мисолида) Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2019 й.
- Шоабдурахмонов Ш. ва б. ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

Давлятова Гульчехра Насыровна кандидат педагогических наук, профессор кафедры русской филологии Ферганского государственного университета
gdavlyatova@inbox.ru ORCID id- [0000-0002-0767-8485](https://orcid.org/0000-0002-0767-8485)



ГЕНДЕРНО МАРКИРОВАННАЯ ИНВЕКТИВНАЯ ЛЕКСИКА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРАГМАТИКА И РИТОРИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ

<https://zenodo.org/records/18724387>

Аннотация: В современной лингвистике усиливается интерес к изучению инвективной лексики как важного компонента речевого взаимодействия, отражающего социальные установки, ценностные ориентации и механизмы символической власти. Особую актуальность приобретает проблема гендерной маркированности инвективов, поскольку оскорбительные номинации нередко репрезентируют асимметричные представления о мужчине и женщине и выполняют не только экспрессивную, но и идеологическую функцию. Проблема исследования заключается в недостаточной систематизации прагматических и риторических функций гендерно маркированной инвективной лексики в современном русском языке и отсутствии комплексного описания механизмов ее воздействия в различных типах дискурса. Цель статьи — выявить структурно-семантические особенности гендерно ориентированных инвективов и определить их прагматический потенциал в публичной и повседневной коммуникации. Решение поставленной проблемы достигается посредством комплексного анализа лексических единиц, функционирующих в медиадискурсе, интернет-коммуникации и художественной речи, а также путем разработки классификации их риторических стратегий. В результате исследования установлено, что гендерно маркированная инвективная лексика выступает инструментом социальной иерархизации, средством конструирования идентичности и способом речевого воздействия, направленного на воспроизводство либо трансформацию гендерных норм.